# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

## Qoraqalpog'iston Respublikasida oliy ta'lim tizimining asosiy ko'rsatkichlari (2019/2020 o'quv yili boshiga)




Qoraqalpog'iston Respublikasida 2019- yilning 1-noyabr holatiga 9 ta oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda, ulardan 7 tasi filiallar.

2019/2020 o'quv yili boshiga oily ta'lim muassasalarida 25442 nafar talaba ta'lim olmoqda, ulardan davlat grantlari asosida 5946 nafari ta'lim olmoqda. Jami talabalar sonidan kunduzgi bo'limda 21566 nafar, kechki bo'limda 99 nafar, sirtqi bo'limda esa 3777 nafar talabalar tahsil olmoqda.

## Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalarning jinsi bo'yicha taqsimlanishi






2019/2020 o'quv yili boshiga oliy ta'lim muassasalaridagi jami talabalardan 52,9 foizini 13451 nafar qizlar tashkil etadi. Ulardan talaba qizlari soni kunduzgi bo'limda 10893 nafari, kechki bo'limda 32 nafari, sirtqi bo'limda esa 2526 nafari tahsil oladi.

## Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan jami talabalarning yoshi bo'yicha taqsimlanishi, kishi

| | Jami | 17 yosh va undan kichik | 18 yosh | 19 yosh | 20 yosh | 21 yosh | 22 yosh | 23 yosh | 24 yosh | 25 yosh va undan katta |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 25442 | 243 | 1094 | 2536 | 3135 | 4014 | 3388 | 2964 | 2405 | 5663 |

**Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan jami talabalarning o‘qitish tillari bo‘yicha taqsimlanishi**




Oliy ta’lim muassasalaridagi jami talabarni ta’lim olib boriladigan tillari bo‘yicha taqsimlanganda, o‘zbek tilida – 33,0 foiz, qaraqalpoq tilida – 57,6 foiz, rus tilida – 9,5 foiz, qozoq tilida – 1,4 foiz, turkman tilida ta’lim berilayotgan talabalarning ulushi – 0,7 foizni tashkil etadi.

**Oliy ta’lim muassasalariga qabul qilingan talabalar soni, kishi**

**2019/2020 o‘quv yili boshiga**




2019/2020 o‘quv yili boshiga oily ta’lim muassasalariga jami 7168 nafar yoshlar talabalikka qabul qilingan, ulardan 1775 nafari qizlar.

## Oliy ta'lim muassasalarida bitiruvchilar soni






2019- yilda oily ta'lim muassasalari bitiruvchilari soni 4312 nafarni tashkil etib, ulardan 4189 nafari bakalavr bosqichini, 123 nafar talaba esa magistratura bosqichini bitirgan. Jami oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarning 50,8 foizin (2190 nafari) qizlar tashkil etadi.

## Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari tarkibi



2019/2020 o‘quv yili boshiga oliy ta’lim muassasalarida 1653 nafar professor-o‘qituvchilar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, ulardan 48,9 foizi ayol o‘qituvchilar tashkil etadi. Jami professor - o‘qituvchilaridan fan doktor ilmiy darajaga ega bo‘lganlar soni 64 nafarni, fan nomzodlari - 353 nafarni hamda falsafa doktorlari 77 nafarni , tashkil etmoqda, shuningdek ilmiy unvoni bo‘yicha professorlar 36 nafarni, dotsentlar - 247 nafarni tashkil etadi.

## Qoraqalpog’iston Respublikasida oliy ta’lim bakalavriat bosqichining asosiy ko‘rsatkichlari (2019/2020 o‘quv yili boshiga)

**Bakalavriat** – mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim muddati kamida to‘rt yil davom etadigan tayanch oily ta’limdir.

## 2019/2020 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga talabalar qabuli

2019/2020 o'quv yili boshiga bakalavriat bosqichiga jami 6827 nafar, shu jumladan 1630 nafari davlat grantlari asosida, 5197 nafar yoshlar esa shartnoma asosida talabalikka qabul qilingan. Qabul qilingan talabalardan 50,5 foizni (3448 kishi) qizlar tashkil etadi. 2019/2020 o'quv yili boshiga bakalavriat bosqichiga qabul qilingan talabalarning 5503 nafari kunduzgi, 99 nafari kechki, 1225 nafari sirtqi bo'limlarga qabul qilingan.







**Oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat ta'lim olayotgan jami talabalar, kishi**
**(2019/2020 o'quv yili boshiga)**

**Kurslar boyicha talabalar soni**



Oliy ta’lim muassasalaridagi bakalavriat bosqichi talabalarining umumiy soni 24893 nafarni tashkil etgan, ulardan 52,7 % (13130 nafarni) qizlar tashkil etgan. Bakalavriat bosqichi talabalarining umumiy sonidan, kunduzgi bo‘limda 21017 nafar, kechki bo‘limda, 99 nafar, sirtqi bo‘limda esa 3777 nafar talabalar ta’lim olmoqda. Bakalavr bosqichida davlat granti asosida tahsil olayotgan talabalar soni 5784 nafarni tashkil etadi.

2019- yilda bakalavr darajasiga ega bo‘lgan talabalar soni 4189 nafarni tashkil etib, ularning 1395 nafari (33,3 %) davlat grantlari asosida, 2794 nafari (66,7 %) esa to‘lov shartnoma asosida ta’lim olgan. 2019- yilda bakalavriat bosqichini bitirganlarning 2115 nafarini (50,5 %) qizlar tashkil etadi. 2020- yilda kutilayotgan bitiruvchilar soni 5276 nafar bo‘lib, ulardan 1427 (27,0 %) – davlat grantlari asosida o‘qiyotgan talabalardir.

**Qoraqalpog’iston Respublikasida oliy ta’lim magistratura bosqichining asosiy ko‘rsatkichlari**
**(2019/2020 o‘quv yili boshiga)**

**Magistratura** - aniq mutaxassislik bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta’lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oily ta’limdir.



# QORAQALPOG’ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

2019/2020 o‘quv yili uchun magistraturaga jami 341 nafar qabul qilingan talabalardan 42,5 foizi (145 nafar), davlat granti asosida, 57,5 foizi (196 nafar) to‘lov shartnoma asosida qabul qilindi .

**Oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichiga talabalar qabuli**

Magistratura bosqichida ta’lim olayotgan jami talabalar soni 549 nafarni tashkil etib, ulardan 162 nafari davlat grantlari asosida, 387 nafari shartnoma asosida ta’lim olmoqda. Jami talabalarning 58,5 foizin (321 nafar) qizlar tashkil etgan.

**Oliy ta’lim muassasalarining magistratura bosqichi bitiruvchilari**



**57,5 %**

**shartnoma asosida**



**42,5 %**

**davlat grantlari asosida**

2019- yilda oliy ta’lim muassasalari magistratura bosqichining 123 nafar bitiruvchilaridan, 41 nafari davlat grantlari asosida o‘qigan.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**
**statistika boshqarmasi**
**Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi**
**Tel : (61) 222-79-83**
**(61) 224-93-12**